

PAPER

XIZMATLAR SOHASI RIVOJLANISHIDA TRANSPORTNING O‘RNI

Shavkatov Behruz Rustam o‘g‘li^{1,*}

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Bank ishi fakulteti, 3-kurs talabasi

* shavkatov@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada xizmatlar sohasi, zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega ekanligi, u turli sohalarda xizmat ko‘rsatish faoliyatini o‘z ichiga olishi haqida batafsil yoritib o‘tilgan. Maqolada transport sektori xizmatlar sohasining ajralmas qismiligi, uning rivojlanishi iqtisodiy o‘rni, ijtimoiy barqarorlik va hududiy rivojlanishda muhim rol o‘ynashi yozilgan. Transport sektorining samarali ishlashi ish o‘rinlarini yaratish, tijorat faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy resurslarni tejamkorlik bilan boshqarishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli, transportning xizmatlar sohasidagi roli, uning modernizatsiyasi va raqamlashtirilishi orqali yanada rivojlanishga erishish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu, o‘z navbatida, xizmatlar sohasining yuksalishi va umumiy iqtisodiy o‘rni tezlashtiradi.

Key words: xizmatlar; resurs; resurs tejamkorlik; xom ashyo.

Kirish

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylangan va uning o‘rni global miqyosda kuzatilmoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sohasining rivojlanishida transport sektori alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda transport xizmatlari, iqtisodiy faoliyatning har bir sohasida, ayniqsa savdo, logistika, turizm, maishiy xizmatlar va boshqa xizmat turlarida asosiy omil hisoblanadi. Transportning dolzarbligi, avvalo, iqtisodiy integratsiya va global savdo aloqalarining kuchayishi bilan bog‘liq. Yaxshi rivojlangan transport infratuzilmasi mamlakat ichidagi va xalqaro bozorga yetkazib berish tizimlarining samarali ishlashini ta‘minlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, xizmatlar sektori (masalan, logistika, elektron tijorat, turizm va boshqalar) rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlar sektorining rivojlanishi transport tizimining yuqori samaradorligiga va raqamlashtirilgan transport xizmatlariga bog‘liq. Transportning modernizatsiyasi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, masalan, avtomatlashtirilgan va raqamli tizimlar orqali xizmat ko‘rsatishning samaradorligini oshiradi, ish o‘rinlarini yaratadi va iqtisodiy o‘rni tezlashtiradi. Shu bilan birga, transportning ekologik jihatlari ham muhim ahamiyatga ega. Yashil transport, ekologik toza texnologiyalar va barqaror transport tizimlari xizmatlar sektorida barqaror rivojlanishni ta‘minlashda muhim omilga aylanadi. Bunday yangiliklar, nafaqat

iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik foyda keltiradi. Shunday qilib, xizmatlar sohasi rivojlanishida transportning dolzarbligi uning iqtisodiy samaradorligi, innovatsion yondashuvlar, va ekologik barqarorlikni ta‘minlash bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-yanvardagi “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida quyidagilar respublikada avtomobil transportida yo‘lovchilar tashishni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan:

harakatdagi tarkibni zamonaviy, qulay avtobuslar va mikroavtobuslar bilan yangilash, yo‘nalishlarni oqilona tashkil etish va kengaytirish, yo‘l qoplamalarini birinchi navbatda qishloq joylarda yaxshilash hisobiga aholining avtomobillarda tashuvlarga bo‘lgan talab-ehtiyojini yanada to‘liq qondirishni ta‘minlash;

yo‘lovchilar tashish xavfsizligi chora-tadbirlarini kuchaytirish, yo‘nalishlar bo‘yicha harakatlanish jadvalariga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlash, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifat darajasini oshirish, yo‘lovchilar tashish sohasida iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish tizimini shakllantirish, yo‘lkira haqi uchun naqd pulsiz to‘lov tizimini joriy etish;

avtobuslar va mikroavtobuslardan oqilona va samarali foydalanishni ta‘minlash, avtomobil transporti korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holatini mustahkamlash;

yo'lovchilar tashishni boshqarish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish [1].

Adabiyotlar sharhi

Bu borada bir qator xorijiy olimlar o'z izlanishlarini olib borishgan:

Ch.L.Magening asosiy e'tibori transportning iqtisodiy jihatlari, logistika tizimlarining optimallashtirilishi, va xizmatlar sektorining rivojlanishidagi transportning roliga qaratilgan. U transport va logistika o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qiladi. Ch.L.Mage o'zining "Transportation and Logistics in the Global Economy" asarida quyidagi asosiy yo'nalishlarni xususiyatlarini keltirib bergan:

1. Transport va logistika tizimlarining samaradorligini oshirish: Magee transport va logistika tizimlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqadi, bu esa xizmatlar sektori va iqtisodiyot uchun foydalidir.

2. Ta'minot zanjiri va transportni integratsiya qilish: Transportning samarali ishlashi ta'minot zanjirining muhim qismi bo'lib, Magee ta'minot zanjirini yaxshilashga qaratilgan izlanishlar olib boradi. U transport va logistika tizimlarini birlashtirib, umumiy samaradorlikni oshirishni maqsad qiladi.

3. Logistika va transport xizmatlarini optimallashtirish: Magee logistika va transport xizmatlarining eng samarali va iqtisodiy yo'llarini tadqiq qiladi. Bu, ayniqsa, tijorat faoliyati va xizmatlar sektorining yuksalishiga ta'sir qiladi [2].

J.P.Rodrigue o'zining "The Geography of Transport Systems" asarida transportni geografik nuqtai nazardan tahlil qilishda juda foydalidir. U transport tizimlarining iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi rolini tushunish uchun geografiyaning qanday foydalanilishi kerakligini ko'rsatadi. Ushbu asarda global savdo va transport tizimlarining o'zaro ta'siri, shuningdek, transport tizimlarining global iqtisodiyotga qanday ta'sir qilishini tushunish uchun juda muhim ma'lumotlar keltirilgan [3].

Olim Sh.Khamraev transport tizimlarining samaradorligi, shuningdek, O'zbekistonning transport infratuzilmasining rivojlanishi masalalarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Uning ishlari, mamlakatda transport sohasining rivojlanishi va uning iqtisodiyotga ta'siri haqida muhim nazariy va amaliy yondashuvlarni taqdim etadi.

B.Tursunov, J.Khusanov kabi olimlar transport xizmatlari, transport logistikasining rivojlanishi, samaradorligini oshirish va xalqaro aloqalar masalalarini o'rganadilar. Ularning tadqiqotlari transport tizimlarining integratsiyasi, ta'minot zanjirining boshqarilishi va transport infratuzilmasining modernizatsiyasi bilan bog'liq.

Tahlil va natijalar

Xizmatlar sohasida transport statistikasi – bu transport tizimining rivojlanishi, samaradorligi va uning xizmatlar sektori bilan bog'liqligini o'rganishga qaratilgan muhim ma'lumotlar to'plamidir. Ushbu statistikalar turli transport turlari (avtomobil, temir yo'l, havo, suv transporti va boshqalar) orqali ko'rsatilgan xizmatlarning hajmi, sifatini va ta'sirini baholashga yordam beradi.

Quyidagi rasmda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra transport xizmatlari hajmining 2020–2024-yillardagi dinamikasi tasvirlangan:

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda transport xizmatlari hajmi 145 trln 124 mlrd 400 mln so'mni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 126,7 % ga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 50,0 % ni tashkil etdi. Havo transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar




Figure 1. O'zbekiston Respublikasi xizmatlar sohasida transport xizmatlari hajmining 2020–2024 yillardagi dinamikasi [4].

ulushi 14,5 % ni, quvurlar orqali – 13,9 % ni tashkil etdi. Yordamchi transport faoliyati 12,5 % ni tashkil etdi. O'z navbatida, temir yo'l transporti tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar transport xizmatlarining umumiy hajmida 9,1 % ni tashkil etdi.

Quyidagi jadvalda (Table 1) 2022–2024 yillardagi hududlar kesimida transport xizmatlari hajmi (mlrd so'm) keltirilgan [4].

Table 1. 2022–2024 yillardagi hududlar kesimida transport xizmatlari hajmi

Hududlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Toshkent shahri	13 112,7	19 804,4	28 551,6
Toshkent viloyati	5 946,4	7 268,7	10 246,5
Samarkand viloyati	5 333,6	6 805,1	9 865,5
Farg'ona viloyati	3 990,8	5 091,6	7 205,6
Andijon viloyati	3 460,6	4 312,5	6 240,4
Buxoro viloyati	3 310,8	4 031,1	5 670,0
Qashqadaryo viloyati	3 401,7	4 049,2	5 642,8
Namangan viloyati	2 504,5	3 369,3	4 978,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 830,1	3 170,3	4 265,3
Xorazm viloyati	2 354,6	2 839,0	4 164,3
Surxondaryo viloyati	1 926,9	2 346,6	3 309,50
Navoiy viloyati	1 497,9	1 796,3	2 635,90
Jizzax viloyati	1 164,70	1 455,4	2 101,50
Sirdaryo viloyati	666,2	762,4	1 116,10

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki transport hajmining eng katta ulushi Toshkent shahriga 28 trln 551 mlrd 600 ming so'm, Toshkent viloyati 10 trln 246 mlrd 500 mln so'm hamda Samarqand viloyati 9 trln 865 mlrd 500 mln so'm to'g'ri kelmoqda. Eng kichik ulushni esa Navoiy viloyati 2 trln 635 mlrd 900 mln so'm, Jizzax viloyati 2 trln 101 mlrd 500 mln hamda Sirdaryo viloyati 1 trln 116 mlrd 100 mln so'm tashkil qilmoqda. 2023-yilga nisbatan Toshkent shahridagi transport xizmatlari hajmi 144,2 % ga, Toshkent viloyatida 141% ga, Samarqand viloyatida esa 145 % ga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa

Xizmatlar sohasida transportning o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib, transport tizimlari har bir iqtisodiy sektorda, xususan xizmatlar sohasida samarali va barqaror rivojlanish uchun asosiy tarmoq hisoblanadi. Transport xizmatlarining rivojlanishi iqtisodiy o'sish, savdo va integratsiya jarayonlarining tezlashishi, shuningdek, shaxsiy va jamoat ehtiyojlariga xizmat ko'rsatishda yuqori samaradorlikni ta'minlashga imkon yaratadi.

Transport sohasining rivojlanishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga, ayniqsa xizmatlar sohasiga bevosita ta'sir qiladi. Samarali transport tizimlari, yuklarni va yo'lovchilarni tez va arzon tashish imkoniyatini yaratadi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, transport tarmoqlari xalqaro va mahalliy savdon-

ing rivojlanishiga, investitsiyalar va yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi. Transport sohasida yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki transport tizimlarining samaradorligini, xavfsizligini va ekologik barqarorligini ham ta'minlaydi. Elektr transport vositalari, raqamli tizimlar, va avtomatlashtirilgan logistik tizimlar transport xizmatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.01.2017-yildagi "Aholiga transport xizmati ko'rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo'lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2724-sonli qarori.
2. Ch.L.Mage. "Transportation and Logistics in the Global Economy". Routledge. London. 2011.
3. J.P.Rodrigue. "The Geography of Transport Systems". Routledge. London. 2006.
4. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti. Xizmatlar sohasi statistikasi axborotnomasi.
5. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi rasmiy sayti.